

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.FM.82.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NURMAMATOV SHEROZ ERALIYEVICH**

**ASTRONOMIYADAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI  
O'TKAZISHDA OPTIK KUZATUVLARDAN OLINGAN NATIJALARINI  
TAHLIL QILISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (astronomiya)**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical  
sciences**

**Nurmatov Sherov Eraliyevich**

Astronomiyadan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarini tahlil qilish metodikasi.....3

**Нурмаатов Шероз Эралиевич**

Методика анализа результатов полученных из оптических наблюдений при проведении лабораторных занятий по астрономии.....23

**Nurmatov Sherov Eralievich**

The methodology of analyzing the results obtained from optical observations during laboratory classes in astronomy.....43

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....48

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.FM.82.04 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**NURMAMATOV SHEROZ ERALIYEVICH**

**ASTRONOMIYADAN LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI  
O‘TKAZISHDA OPTIK KUZATUVLARDAN OLINGAN NATIJALARINI  
TAHLIL QILISH METODIKASI**

**13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (astronomiya)**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Chirchiq – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Ped4157 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.cspi.uz.ilmiy-kengash](http://www.cspi.uz.ilmiy-kengash)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muxamedov Gafurjan Israilovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Narbayev Azamat Baxramovich**  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent


**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.09.2024.FM.82.04 raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil 28 11 soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil:111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.:(+998)70-712-27-55; faks:(+998)70-712-45-41; e-mail: [chdpi-kengash@umail.uz](mailto:chdpi-kengash@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (390 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.:(+998)70-712-27-55; faks:(+998)70-712-45-41; e-mail: [chdpi-kengash@umail.uz](mailto:chdpi-kengash@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "17" 11 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "17" 11 dagi 1 - raqamli reestr bayonnomasi).

  
**B.X. Eshchanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kassasi, f.-m.f.d. (DSc), professor

  
**S.Z. Raxmanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kassasi, f.-m.f.d. (PhD), dotsent

  
**I.G. Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy  
kengash kassasi, f.-m.f.d. (DSc), professor



## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Hozirgi davrda, zamonaviy texnologiyalar jadal rivojlanayotgan bir sharoitda, astronomiya fanini o'qitish sifati va samaradorligini oshirish masalasi yanada dolzarb tus olmoqda. Yosh avlodning astronomiyaga oid tasavvurlarini kengaytirish maqsadida ta'lim jarayonida optik kuzatuvlar, ilmiy izlanishlar natijalari hamda zamonaviy ilm–fan yutuqlariga asoslangan resurslardan keng foydalanilmoqda. Xalqaro Astronomiya Ittifoqining 2020–2030–yillarga mo'ljallangan strategik rejasida ham astronomik tadqiqot natijalarini keng ommaga yetkazish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Ushbu maqsadga erishish yo'lida ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy veb–saytlar va elektron aloqa kanallari orqali ma'lumot almashinuvini kuchaytirish tavsiya qilinadi. Bundan tashqari, turli yosh toifalariga mo'ljallangan ilmiy kontent yaratish va uni bir nechta tillarda tarqatish orqali global miqyosda astronomiyaning ommalashuviga erishish taklif etilmoqda. Bu kabi yo'nalishlar, o'z navbatida, astronomiya fanining laboratoriya mashg'ulotlarida kuzatuv natijalaridan samarali foydalanish zaruratini kuchaytiradi. Ilmiy tadqiqotga asoslangan metodik yondashuvlarni takomillashtirish, talabalarni ilmiy izlanishga keng jalb etish va ularning amaliy kompetensiyalarini shakllantirish shu jarayonning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xalqaro miqyosdagi ta'lim tajribasida talabalarining ijodkorligi va muhandislik qobiliyatini rivojlantirish, texnik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish va umumilmiy bilimlarni mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday tadqiqotlar innovatsion pedagogik texnologiyalarni yaratishga, talabalarining ilmiy izlanish natijalari bilan tanishib borishiga hamda ularni amaliy faoliyatga tatbiq etish malakasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Xususan, nostandart fikrlashni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va yangi texnologiyalarni amaliyotga joriy etish kabi ko'nikmalar bugungi ta'limning ustuvor yo'nalishlari sifatida qaraladi. Shu bilan birga, talabalar astronomiyadan optik kuzatuv natijalarini tahlil qilish asosida ilmiy–tadqiqotchilik kompetensiyalarini boyitish va uni yangi pedagogik imkoniyatlar bilan takomillashtirish imkoniga ega bo'lishlari lozim.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish doirasida ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanib, axborot almashish tizimlari takomillashtirilmoqda. O'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalari hamda dasturiy-pedagogik vositalarni joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan tashqari, o'quv-metodik materiallar takomillashtirilib, innovatsion yondashuvlarga asoslangan ta'lim resurslari bilan ta'minlash ishlari izchil olib borilmoqda. Respublikamiz Prezidentining "Ta'lim va ilm-fanni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>1</sup>gi qarorida ta'lim tizimini tubdan modernizatsiya qilish, xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlarini joriy etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha muhim vazifalar belgilangan. Shu bilan birga, innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish orqali fanlarni, jumladan, astronomiyani zamonaviy metodlar asosida o'qitish talab

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-sonli qarori: <https://lex.uz/docs/5085887>

etilmoqda. Mazkur qaror doirasida optik kuzatuv natijalaridan samarali foydalanish, ularni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish va o'qitishning yangi metodik tizimlarini ishlab chiqish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son farmonlari, 2017-yil 14-sentabrdagi "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumiy o'rta ta'lim maktab-internatini va "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3275-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining Davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son qarori ijrolariga binoan "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus professional va oliy ta'lim tizimlarida o'quv dasturlarining uzviyligini ta'minlash konsepsiyalari" hamda "O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim milliy dasturlari"ni takomillashtirish, 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Mamlakatimizda astronomiyaning nazariy va ilmiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha Sh.Egamberdiyev, S.Nuritdinov, I.Sattarov, S.Ilyasov, B.Ahmedov, F.Atamuratov, Ch.Sherdanov, O.Burxonov, F.Fattoyev, Yu.Tillayev, I.Tadjibayev, uzluksiz ta'lim tizimida tabiiy fanlarni, jumladan, fizika va astronomiyani o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari M.Mamadazimov, M.Djoraev, B.Sattorova, T.Orlova, A.Narbaev, F.Dadaboyeva, A.Tillaboev, S.Sh.Kutlimuratov va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida astronomiyaning nazariy va ilmiy asoslarini rivojlantirish G.G.Valyavin, G.I.Pinigin, R.Yu.Lukyanova, I.V.Golovchanskaya, A.B.Pushkarev, N.Ya.Sotnikova va boshqalar, astronomiya fanini o'qitish metodikasi va uning muammolari esa N.P.Emes, L.V.Jukov, D.V.Perevoshikov, M.A.Vinnik, L.D.Polojenseva, N.V. Gornostayeva va boshqalarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Xorijiy mamlakatlarda astronomiyaning nazariy va ilmiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha Roger Blandford, Andrea Ghez, Martin Rees, George Efstathiou, Sandra M. Faber, astronomiya fanini o'qitish metodikasi sohasida Timothy F. Slater, Lina Danaia,

Karen Bultitude, Kgomotso Phorah, David McKinnon va boshqa olimlar tadqiqot ishlari olib borishgan.

Astronomiya kursidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish muammolari bo'yicha ko'plab pedagogik va ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lsa-da, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida astronomiya kursidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalardan foydalanib o'qitishning shakl va usullarini o'rganish zaruriyati mavjudligi namoyon bo'lmoqda va bunday imkoniyat tadqiq qilinmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida astronomiya kursidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlashtirish;

kuzatuv natijalarini tahlil qilish asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning didaktik tizimini takomillashtirish;

optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish orqali talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmasini baholash me'zonlarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida optik kuzatuv natijalaridan foydalangan holda astronomiya kursidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Qo'qon davlat universiteti va Navoiy davlat universitetining jami 163 nafar talabasi jalb qilingan.

**Tadqiqotning predmetini** pedagogika oliy ta'lim muassasalarida astronomiya kursidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish jarayonida optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish va uni qo'llashning ta'limiy va pedagogik mazmuni, shakli, texnologiyasi, amaliy mexanizmlari, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida nazariy (ilmiy-metodik manbalar tahlili, qiyosiy tahlil, tizimli va integrativ yondashuv), diagnostik (suhbat, so'rovnoma, kuzatish, intervyu), tajribaviy (pedagogik eksperiment, refleksiya tahlili, metodik modellashtirish, optik kuzatuv ishlarini bajarish jarayonini o'rganish, optik kuzatuvlarda olingan natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarining rivojlanganlik darajasini tashxislash) hamda matematik-statistik (ma'lumotlarni qayta ishlash, natijalarni grafik tavsiflash, aniq miqdoriy farqlarni aniqlash) kabi usullardan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari astronomiya fanini o'qitishning ilg'or tajribalarini pedagogik ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda integrativ yondashuv va refleksiv tahlilga ko'ra talabalarning individual akademik faoliyatini motivatsion-faoliyat va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga muvofiq didaktik-modellash asosida aniqlashtirilgan;

kuzatuv natijalarini tahlil qilish asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlarni uyg'unlashtirgan holda reproduktiv, muammoli va tadqiqiy metodlarni birlashtiruvchi mazmunli-protsessual komponentni, bosqichma-bosqich ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish mexanizmlarini hamda baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini tizimlashtirish asosida ishlab chiqilgan;

laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlarga asoslangan mashg'ulotlarning metodik talablari va samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv-metodik ta'minot ishlab chiqilib, optik kuzatuv natijalarini tahlil qilish orqali talabalarda astronomik hodisalarni ilmiy asosda tushunish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik tizim takomillashtirilgan;

optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish orqali talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmasini baholash me'zonlari IRAF va MaxIm DL dasturiy vositalarni ta'lim jarayoniga didaktik material sifatida tatbiq etish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida astronomiya kursi laboratoriya mashg'ulotlarining mavzulari optik kuzatuvlarga asoslangan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida takomillashtirilgan va uni o'qitishga doir uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida astronomiya kursidan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilish metodikasi "Kuzatuv natijalarini tahlil qilish asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli" asosida takomillashtirilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida astronomiya kursini o'qitishni metodik qo'llab-quvvatlash maqsadida astronomiya kursiga oid ilmiy-tadqiqot natijalariga asoslangan ma'lumotlar (video, audio, rasm, animatsiya, simulyatsiya, 3 o'lchamli rasmlar, internet saytlari) astronomiya sohasidagi ilmiy yangiliklar, dasturiy-pedagogik vositalar, mavzu taqdimotlari kabi ishlanmalar amaliyotga joriy qilingan (ijtimoiy tarmoqda "Astronomik hodisalar" nomli kanal va "Astronomiyadan kuzatuv va amaliy masalalar" nomli telegramm guruhida O'zbekiston bo'yicha astronomiyaga oid ma'lumotlar tarqatilgan);

pedagogika oliy ta'lim muassasalari tizimida astronomiya kursidan laboratoriya mashg'ulotlarini virtuellashtirib o'qitishga yo'naltirilgan "Astronomiya kursi 1, 2 (Astronomiya kursidan laboratoriya ishlari)" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan, nashr qilingan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalari tizimida astronomiya kursi ma'ruza mashg'ulotlarini o'qitishga yo'naltirilgan "Astronomiya kursi" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan, nashr qilingan va o'quv jarayoniga tatbiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ishda qo'llanilgan yondashuv va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plamlari, OAK e'tirof etgan respublika va xorijiy jurnallarda chop qilingan maqolalar, metodik qo'llanmalar, keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida astronomiya kursi laboratoriya mashg'ulotlarida optik kuzatuvlardan olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish asosidagi takomillashtirilgan mazmuni ishlab chiqilganligi, uslubiy qo'llanmalar yaratilgani hamda ularning astronomiya kursini o'qitish jarayoniga tadbiiq qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati pedagogika oliy ta'lim muassasalarida optik kuzatuvlardan olingan natijalarni qayta ishlash va tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan astronomiya kursi laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishning o'quv-metodik ta'minoti o'quv jarayonini takomillashtirish bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni, o'quv dasturlari, o'quv qo'llanmalarini ishlab chiqishda va bo'lajak astronomiya o'qituvchilarini tayyorlash mazmuni hamda sifatiga qo'yiladigan Davlat ta'lim standartlarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarini tahlil qilish metodikasi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

astronomiya fanini o'qitishning ilg'or tajribalarini pedagogik ta'lim amaliyotiga tatbiq etishda integrativ yondashuv va reflektiv tahlilga ko'ra talabalarning individual akademik faoliyatini motivatsion-faoliyat va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarga muvofiq didaktik-modellash asosida aniqlashtirilgan astronomiyadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning pedagogik-psixologik imkoniyatlariga oid taklif va tavsiyalaridan O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"da e'fira uzatilgan "Ta'lim va taraqqiyot", "O'zbekiston yoshlari" nomli dasturlar senariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanali"ning 2023-yil 24-iyuldagi 04-36-1126-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur ko'rsatuvlar talabalarning tayanch va fanga oid ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalari tarkibiy qismlarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ta'limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlarni uyg'unlashtirgan holda reproduktiv, muammoli va tadqiqiy metodlarni birlashtiruvchi mazmunli-protsessual komponentni, bosqichma-bosqich ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirish mexanizmlarini hamda baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini tizimlashtirish asosida ishlab chiqilgan kuzatuv natijalarini tahlil qilish asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modeliga doir tavsiyalardan "Astronomiya kursi 1,2 (Astronomiya kursidan laboratoriya ishlari)" nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan

416686-sonli guvohnomasi). Natijada, talabalar astronomiya kursini samaraliroq o'zlashtirib, ularning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishga erishilgan;

laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlarga asoslangan mashg'ulotlarning metodik talablari va samaradorligini oshirishga qaratilgan o'quv-metodik ta'minot ishlab chiqilib, optik kuzatuv natijalarini tahlil qilish orqali talabalarda astronomik hodisalarni ilmiy asosda tushunish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik tizimini takomillashtirishga doir tavsiyalaridan "Astronomiya kursi" nomli o'quv qo'llanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 25-avgustdagi 391-sonli buyrug'iga asosan 260591-sonli guvohnomasi). Natijada, talabalarning astronomiya kursini o'zlashtirish samaradorligini oshirishga erishilgan;

optik kuzatuv natijalarini tahlil qilish orqali talabalarda astronomik hodisalarni ilmiy asosda tushunish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan didaktik tizim takomillashtirilgan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning didaktik tizimi, IRAF va MaxIm DL dasturiy vositalarda produktivlikda ishlashga motivatsiyalovchi o'zaro ta'sirli ish turlarini tezkor monitoringli qo'llashning amaliy-metodik platformasini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish orqali talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmasini baholash me'zonlariga oid tavsiyalardan O'zbekiston respublikasi Fanlar akademiyasi M.Ulug'bek nomidagi Astronomiya institutining VA-FA-F-2-010-raqamli "Sayyoralar tizimi jismlarining fazoviy va kinematik xususiyatlarini optik kuzatuvlar asosida tadqiq etish" nomli grant doirasida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (2023-yil 24-iyuldagi 163-sonli ma'lumotnoma). Natijada, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarining dasturiy pedagogik vositalardan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, jumladan, 7 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 110 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan hamda ilmiy-amaliy ahamiyati, natijalarning ishonchliligi, amaliyotga joriy

qilinishi, tadqiqot ishining aprobativasi, tuzilishi va hajmiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Astronomiyadan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida astronomiya kursida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil etishning pedagogik-psixologik, mazmunli va jarayonli tarkibiy jihatlari, fanlar integratsiyasi, optik kuzatuv texnologiyalari va zamonaviy AKT dasturlari orqali o‘qitish metodikasi chuqur tahlil qilingan.

Mazkur bobda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida fanlararo yondashuvning imkoniyatlari hamda ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliy mashg‘ulotlarga integratsiyalash muhim pedagogik omil sifatida ko‘rsatilgan. Shuningdek, zamonaviy astronomiya o‘qitish metodikasi bugungi XXI asrda fanni o‘rganish jarayonini chuqurlashtirish, talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirish, mantiqiy, muammoli va ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Xususan, astronomiya mazmuni, uning uzluksiz ta'lim tizimidagi integrativ o‘qitish metodikalari (M.M. Mamadazimov), astronomiya kursida ilmiy natijalaridan foydalanib talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltirishning psixologik va metodik asoslari (A.M.Tillaboyev), fanni gumanitarlashtirish va zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish orqali ratsional tafakkurni rivojlantirish mexanizmlari (F.Dadaboyeva) o‘rganilgan. Tahlillar asosida o‘qitish jarayonining tizimlilik, faoliyatga yo‘naltirilganlik tamoyillari orqali bilimlarni chuqurlashtirish (Yu.K.Babanskiy, A.A.Verbitskiy), kontekstual yondashuv modelining fanlararo integratsiya va real hayotiy faoliyat bilan bog‘lashga imkon berishi (A.A. Verbitskiy) hamda ilm-fan yutuqlarini ta'limga tatbiq qilish orqali talabalarining mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish (R.F.Millar) zarurati va imkoniyatlari o‘rganildi.

Shuningdek, optik kuzatuvlar asosidagi laboratoriya mashg‘ulotlarini takomillashtirishga doir amaliy metodlar qatorida, talabalarda yangi bilimlarni o‘zlashtirish, mustaqil tahlil va ilmiy faktlar asosida xulosa chiqarish, nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llashga qaratilgan integratsion yondashuvlar ham o‘rganilgan. Bu yondashuvlar astronomiya kursining amaliy qismida o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish va zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish imkonini berishi xulosalangan.

Bugungi zamonaviy qarashlardan kelib chiqqan holda, talabalarining qiziqishlarini inobatga olish, astronomiyadan optik kuzatuvlar va uni o‘qitish vazifalarini bir-biriga taqqoslab chiqish hamda ularning mos jihatlarni aniqlashtirish pedagogik muammo sifatida o‘rganilgan. Buning natijasida astronomiyadan optik kuzatuvlar va astronomiya kursini o‘qitish integratsiyasini ta'minlovchi vazifalar sifatida talabalarga optik kuzatuv natijalari singdirilgan ma'lumotlarni idrok etish va ularni tahlil qilishga o‘rgatish metodlari belgilangan. Ya'ni, **talabalarining tanqidiy fikrlash, ma'lum bir ilmiy yangilik ma'nosini anglash, ilmiy-tadqiqot ishlariga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirish tamoyillari** aniqlashtirilgan.

Talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirish metodikasida ilmiy-tadqiqot natijalari asosida adabiyotlarni zamonaviy astronomiya yutuqlari bilan

boyitish, **fanlar integratsiyasida o'quv axborot tarkibini aniqlash, bilimlarni tizimlashtirishni** o'quv jarayonining eng muhim elementlari sifatida qaratiladi. Ilmiy tadqiqotga bunday yo'naltirish talabalarda mantiqiy, muammoli hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Zamonaviy pedagogikada talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetentligini shakllantirish ustuvorligi fanlararo integratsiya ta'lim mazmunini zamonaviy ilmiy tadqiqot natijalari bilan boyitish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini didaktik vosita sifatida qo'llash, shuningdek, o'quv materiallariga ijodiy yondashish kabilar bilan belgilanadi. Shu asosda ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirishda o'quv materialining strukturaviy komponentlari (nazariy asos, kuzatuv metodikasi, eksperiment natijalarini tahlil qilish va ilmiy xulosa chiqarish bosqichlari) uzviy bog'langan holda ishlab chiqildi. Axborot texnologiyalari asosida astrofizik ma'lumotlarni o'rganish metodikasi talabalarning mustaqil holda ilmiy axborot bilan ishlash, uni tahlil qilish hamda shaxsiy va kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish imkonini oshiradi (Y.S. Sobenina, F.Dadaboyeva), o'quv faoliyatini raqamli texnologiyalar vositasida tashkil etish fanlar integratsiyasi, uning metodik tizimini ishlab chiqilish hamda eksperiment natijalariga asoslangan ilmiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga asos bo'ladi (N.P.Yemets, A.Narbayev). Shu bilan birga o'quv faoliyatini modellashtirish va reflektiv tahlil talabalarning yuqori darajadagi tafakkur faoliyatini rivojlantiradi (V.V. Davidov).

Zamonaviy astronomiya kursining yuzaga kelishida fanlar integratsiyasi va ilmiy tadqiqot yutuqlarining o'zaro bog'liqligi namunasi 1-jadvalda keltirilgan.


Adabiyotlar tahlili amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-metodik ta'minotini zamonaviy ilmiy-tadqiqot natijalari va pedagogik texnologiyalar yordamida takomillashtirishning innovatsion yondashuvlarini qo'llash fanga doir bilimlarni chuqur egallash hamda ularni pedagogik faoliyatda mustaqil qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantiradi, degan xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Bu ayni paytda talabalarda ilmiy tasavvurlarning **fanlar integratsiyasi orqali shakllantirilishi** va mustaqil ta'limda talabalarni ijodiy faollikka yo'naltirish, **loyiha va ilmiy tadqiqot ishlarini bajarishda eng maqbul usullarni taklif qilish ko'nikmalarining** shakllanishiga yordam beradi.

Yuqoridagi konseptual yondashuvlarga asoslanib, astronomiya kursi doirasida laboratoriya mashg'ulotlarining ilmiy-tadqiqot natijalari bilan boyitilgan fanlararo modelini ishlab chiqish zarurati mavjudligi aniqlandi. Bu yondashuv talabalarning nazariy va eksperimental amaliyotga asoslangan fikrlashi, ilmiy axborotdan ongli foydalanish, o'zining tahliliy qarashlarini asoslash kompetensiyalarini rivojlantirish hamda astronomiya kursining ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligini oshirish imkonini beradi.

**Astronomiya kursini o‘qitishda fanlar integratsiyasi va optik kuzatuv natijalarining o‘zaro bog‘liqligi**

| O‘quv dasturidagi mavzular   | Astronomiya optik teleskoplarda olingan natijalarni tahlil qilishda fanlar integratsiyasi |  |  |  |
|--|---|--|--|--|
|  | Umumiy fizika   | Oliy matematika  | Axborot texnologiyalari  | Optik kuzatuv natijalari   |
| <b>Kichik osmon jismlari (asteroid, metiorid, kometa va meteorlar)</b> | Kichik osmon jismlarining fizik xususiyatlari   | trayektoriyalari, efimeridalarini, aylanish davrlarini geometrik qonuniyatlarga asosan hisoblash | Kichik osmon jismlarini yulduziy kattaliklari, trayektoriyalari, efimeridalarini dasturiy vositalar yordamida aniqlash | Maydanak observatoriyasi   |
| <b>Ekzosayyoralar</b>  | Ekzosayyoralar fizik qonuniyatlari  | Aylana yoki ellips traektoriyalarini differensial geometriya qonuniyatlari asosida o‘rganish     | Aylana yoki ellips traektoriyalarini differensial geometriya qonuniyatlarini IRAF dasturi yordamida hisoblash          | Jeyms Webb kosmik teleskopi, Maydanak observatoriyasida tadqiq etilgan ekzosayyoralar                            |
| <b>Yulduzlar fizikasi</b>  | Yulduzlarning fizik qonuniyatlari   | Yulduzlar yorqinligini hisoblashda logarifm qoidasidan   | Yulduzlarni fotometrik kattaliklarini IRAF dasturiy vositalar yordamida hisblash                                       | Xabbl, Jeyms Webb kosmik teleskopi va Maydanak observatoriyasida tadqiq etilgan yulduzlar                        |
| <b>Galaktikalar va Metagalaktika</b>                                   | Galaktikalar va Metagalaktikalarining fazodagi taqsimot zichligi                          | Galaktikalar va Metagalaktikalarining statistik tahlili  | Galaktikalar va Metagalaktikalarining dasturiy vositalar yordamida hisblash  | Xabbl, Jeyms Webb kosmik teleskopi va Maydanak observatoriyasida tadqiq etilgan Galaktikalar va Metagalaktikalar |

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Astronomiyadan laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish metodikasi”** deb nomlanib, unda astronomiya kursi laboratoriya mashg‘ulotlarida optik kuzatuv natijalarini tahlil qilish modeli, astronomiya kursi laboratoriya mashg‘ulotlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish texnologiyasi, astronomiya kursi laboratoriya mashg‘ulotlarida optik kuzatuvlardan olingan tasvirlarni qayta ishlash va fotometriya qilish metodikasi hamda namunaviy mashg‘ulot ishlanmalari bo‘yicha tavsiyalar bayon qilingan. Optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish metodik modeli o‘qitishda qo‘llaniladigan ta‘lim (reproduktiv, muammoli, tadqiqot) metodlari, o‘qitish jarayonida foydalanadigan zamonaviy ilmiy-tadqiqot natijalari va o‘qitishning texnik vositalari orasidagi o‘zaro aloqadorlik elementlarini o‘z ichiga oladi. U maqsadli, mazmunli-prosessual va




**1-rasm. Kuzatuv natijalarini tahlil qilish asosida talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish modeli**

baholash-natijaviy komponentlardan iborat. Masalan, mazmunli-prosessual komponenti ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatini amalga oshirish metodlari, amalga oshirish bosqichlarini qamrab oladi. Tanlangan metodlar talabalarning akademik ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lib, adaptiv (moslashuvchan) ta'lim resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan. Talabani mustaqil ta'lim faoliyatiga asoslangan optik kuzatuv natijalariga tayangan turli vazifalarni ishlab chiqish va qo'llash, ularni bajarish usullarini o'zlashtirish (reproduktiv), muammoli optik kuzatuv natijalarini taqdim qilish asosida tanqidiy fikrlarni rivojlantirish (muammoli) hamda tadqiqotga yo'naltirilgan optik kuzatuv natijalarini tahlil qilish va ulardan kundalik hayotda foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish (tadqiqot)ni nazarda tutadi.

Modelning baholash-natijaviy komponenti esa o'z ichiga talabalarda ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarining rivojlanganlik ko'rsatkichlari, baholash mezonlari (optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning maqsad va vazifalarini tushunish, optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilish ko'nikmalarining mavjudligi, optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish va optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishda AKTdan foydalanish), baholash darajalari (yuqori, o'rta, quyi) orqali talabalarning ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanganlik ko'rsatkichlarini aniqlashga yo'naltirilgan.


Ilmiy-tadqiqot natijalaridan foydalanish ko'nikmalari rivojlanganlik darajalarini baholashda mustaqil ta'lim va ilmiy faoliyat integratsiyasi muhitini yaratish ko'zda tutiladi. Mazkur model talabalarning o'zini-o'zi baholash va ilmiy-tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlar, kursga oid laboratoriya ishlari, kuzatish va tadqiqotchilikka yo'naltirilgan loyiha ishlarini transformativlikda qo'llash jarayonini tizimlashtirishga yordam beradi.

Optikadan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazishda optik kuzatuvlardan olingan natijalarni tahlil qilishning didaktik tizimini takomillashtirish xususan, astronomik topshiriqlarni intensiv bajarishga tayyorlovchi grafikli masalalarni tanlash, talabalarning kognitiv faolligini kuchaytirishga qaratilgan individual yondashuv tartibini joriy etishni talab qiladi. Laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etishda zamonaviy dasturiy ta'minot va raqamli vositalardan foydalanish orqali talabalarning astronomik kuzatuvlardan olingan tasvirlarni qayta ishlash, astrometriya va fotometriya qilish bo'yicha amaliy ko'nikmalari oshiriladi. Bu esa talabalarning astronomiya sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qiziqishini rivojlantirish bilan birga, ularning fundamental astronomik bilimlarini mustahkamlaydi.



**2-rasm. Kichik osmon jismlarini aniqlash**

Optik kuzatuvlardan olingan natijalarni matematik tahlil qilish va fotometriya qilish maqsadida qo‘llanilgan IRAF va MaxIm DL dasturi talabalarning osmon jismlari fizik xususiyatlarini o‘rganish (masalan, Xulkar yulduzlari yorug‘ligini elektrofotometr yordamida o‘lchash, Astronomik kuzatuvlarda olingan tasvirlarni “MaxIm DL” yordamida tezkor astrometriya qilish) talaba yulduzlar yorug‘ligini o‘lchashning zamonaviy usuli, fotoelektrik fotometriya, yulduzning temperaturasini o‘lchash kabilar ularda ilmiy-tadqiqodchilik kompetensiyalarini, shuningdek, astronomiya kursini o‘qitishda nostandart testlardan foydalanish talabalarda bilishga bo‘lgan kognitiv sifatlarni rivojlantiradi. Masalan, astronomiyadan laboratoriya mashg‘ulotlarida ilmiy-tadqiqot yutuqlaridan foydalana olish xususiyatini shakllantirishda (2-rasm, 3-rasm kichik osmon jismlari fotometrik tahlili) fotometrik tahlil kabi metodlardan foydalanish samara beradi.



**3-rasm. Kichik osmon jismlari fotometriyasi**

Shuningdek, teleskopni mustaqil o‘rnatish va undagi nosozliklarni bartaraf etish, astronomik qurilmalar bilan ishlash hamda dasturiy vositalarni ishlata olish ko‘nikmasining rivojlanganligini baholovchi produktiv va talabalarning optik kuzatuv natijalarini tahlil qilish hamda ularning ahamiyatini o‘rganish, mustaqil loyiha va kurs

ishlari yoza olish kabi jihatlarini baholovchi kreativ mezonlar asosida ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyaning rivojlanganligi “yuqori”, “o‘rta”, va “quyi” darajalar bilan baholandi.

Astronomiya kursi laboratoriya mashg‘ulotlarida ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish texnologiyasi va optik kuzatuvlardan olingan tasvirlarni qayta ishlash hamda fotometriya qilish metodikasi ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu metodika talabalarni koinot haqidagi zamonaviy bilimlar bilan tanishtirib, ularni mustaqil tadqiqot ishlariga yo‘naltirishni ko‘zda tutadi. Laboratoriya mashg‘ulotlarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, interaktiv kompyuter dasturlari va raqamli resurslardan keng foydalanish, astronomik kuzatuv natijalarini real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Laboratoriya mashg‘ulotlarida innovasion texnologiyalar va metodlardan foydalanish orqali talabalar quyidagi amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar:

Hulkar yulduzlari yorqinligini elektrofotometr yordamida o‘lchash;

Yupiter va uning yo‘ldoshlarining orbital harakatlarini kuzatish va tahlil qilish;

Astronomik kuzatuvlardan olingan tasvirlarni MaxIm DL dasturi yordamida tezkor astrometriya qilish va fotometriya natijalarini qayta ishlash;

Spektral analiz orqali yulduzlarning haroratini va fizik parametrlarini aniqlash.

Shuningdek, astronomiya kursida laboratoriya mashg‘ulotlarini tashkil qilishning uch xil texnologik usullar (qidiruv, tadqiqot va tadqiqot-qidiruv) taqdim etildi. Bu ayni paytda talabalar faoliyati va ularga topshirilgan ish turlarini tezkor monitoring qilish hamda ta‘lim jarayonida qo‘llashning amaliy-metodik platformasini ishlab chiqishga asos bo‘ladi. Shuningdek, har bir texnologiya vazifasi, o‘quv material mazmuni, amalga oshirish tartibi va natijalarini baholash mexanizmlarini aniq ifodalash, ta‘lim jarayonining metodik imkoniyatlarini kognitiv faollikni kuchaytirish orqali takomillashtirishni talab qiladi. Ushbu texnologiyalar talabalarining nazariy bilimlarini mustahkamlab, ularni mustaqil ta‘lim va ilmiy faoliyat integratsiyasini ta‘minlash orqali ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiradi.

